

VALYUTA KURSI VA INFLYATSIYA: MUAMMO VA YECHIMLARI

Isayev Atabek Djurabayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi, doktorant
otabek1970@yandex.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7563741>

ARTICLE INFO

Received: 15th January 2023

Accepted: 23th January 2023

Online: 24th January 2023

KEY WORDS

Valyuta, valyuta siyosati, valyuta kursi, inflyatsiya, import tovarlar, narx, oziq-ovqat mahsulotlari, valyuta intervensiyasi, valyuta talabi.

ABSTRACT

Maqolada valyuta kursi, unga ta'sir etuvchi omillar, O'zbekistonda inflyatsiya darajasiga valyuta kursi o'zgarishining ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Import tovarlar narxining chet el mamlakat valyutasi almashuv kursiga bog'liqligi hamda valyuta kursini o'zgarishi natijasida inflyatsiya darajasiga ta'sirini kamaytirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

KIRISH

Har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishga erishish asosiy maqsadidir. Milliy iqtisodiyotning barqarorligi ishsizlik, inflyatsiya darajasi kabi ko'rsatkichlariga bog'liq. Inflyatsiyaning yuzaga kelishi mamlakatdagi narxlar darajasi o'zgarishidan kelib chiqadi. Narxlar o'sishi inflyatsiyani rag'batlantiradi va aksincha narxlarning pasayishi inflyatsion jarayonga salbiy ta'sir qiladi. Mamlakat inflyatsiyasiga bir qator omillar ta'sir etib uning darajasini belgilab beradi. Shu omillarning ichida chet el valyuta kursining o'zgarishi ham o'rin olgan. Maqolada O'zbekistonda 2022 yilda valyuta kursining o'zgarishi mamlakatda inflyatsiya darajasiga ta'siri tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inflyatsion jarayonlarga valyuta kursining o'zgarishini chet elda J.Keynes, T.Swan, J.Fleming, M.Fridman, A.Marshall, A.Lerner, R.Dornbusch, J.Frankel, M.Taylorlar o'zining ilmiy qarashlarini iqtisodiy adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarining iqtisodchi olimlari, jumladan, A.Bojehkova, S.Borisov, L.Krasavina, S.Moiseev, A.Movsesyan, P.Truninlar tomonidan valyuta siyosatini yuritish, shakllantirish va tartibga solish masalalari tadqiq qilingan.

Mamlakatimizning bir qator iqtisodchi olimlari, xususan, Sh.Abdullaeva, A.Bekmurodov, T.Boboqulov, F.Mullajonov, M.Nurmuratov, O.Namozov, Z.Berdinazarov, E.Xoshimov, N.Haydarovlar tomonidan valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish, milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash va uning erkin konvertatsiyasini joriy qilish masalalari, pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilish, valyuta kursi va monetar ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariya va amaliy ahamiyatga molik bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.



Metodologik jihatdan maqolada statistik usul, taqqoslash usullardan foydalanib valyuta kursining o'zgarishi inflyatsiyaga ta'siri tahlil qilingan.

NATIJALAR

Yer yuzadagi aksariyat mamlakatlar ochiq iqtisodiy siyosat yuritishmoqda. Shuning uchun hozirgi zamonaviy milliy iqtisodiyotni xalqaro iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilish qiyin. Sh.Shodmonov muallifligida yozilgan Iqtisodiyot nazariyasi darsligida xalqaro iqtisodiy aloqalar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi;
- kapital va chet el investitsiyalarining harakati;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;
- valuta-kredit munosabatlari.[1]

Yuqorida keltilgan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda har bir mamlakat valyuta munosabatlarini yo'lga qo'yishni hamda barqaror valyuta siyosatini yuritishini taqazo etadi.

Valyuta siyosati mamlakatning iqtisodiy siyosatning ajralmas qismidir. Bu siyosat yordami bilan xalqaro darajada milliy iqtisodiyotning eksport va import operatsiyalari, kapital va chet el investitsiyalarning harakati, xalqaro kredit munosabatlari tartibga solinadi. Bundan tashqari valyuta kurslarini o'zgartirish orqali mamlakatda monetar siyosatini yuritish va makroiqtisodiyotni tartiblash vositasi hisoblanadi.

Valyuta va monetar siyosati mamlakatning bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy siyosat hisoblanar ekan, ularning asosiy maqsadi milliy valyutaning barqarorligiga erishish, to'liq bandlik sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir.

Valyuta siyosatida valyuta kurslarini belgilash muhim o'rinni egallaydi. Valyuta kurslarining barqarorligi bevosita milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Professor Z.Berdinazarov fikriga ko'ra, valyuta kursining barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga milliy va chet el foiz stavkalari o'rtasidagi farq, shu jumladan joriy va kutilayotgan foiz stavkalari o'rtasidagi farq, pul taklifi (keng pul massasi) hajmi, joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajalari, xalqaro pul o'tkazmalari (transfertlar), sof eksport, YaIM va yalpi iste'mol hajmi o'rtasidagi farqlarni kiritish mumkin.[2]

Valyuta kurslarini boshqarish davlat monetar siyosatning bir dastagi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, valyuta kurslarining o'zgarishi mamlakatdagi inflyatsion jarayonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankning ma'lumotlariga asosan 2022 yil yanvar-dekabr oylarida valyuta kurslarining o'zgarishi va oyma-oy inflyatsiya darajasi ko'rsatkichlari keltirilgan. (1- jadval.)

1- Jadval

2022 yil yanvar-dekabr oylarida valyuta kursi va inflyatsiya darajasining o'zgarishi (% hisobida).

Oylar	Valyutaning o'rtacha kursi ¹ , 1\$ = so'm	Valyuta kursining o'zgarishi darajasi, %	Inflyatsiya darajasi, ² %
-------	--	--	--------------------------------------

¹ Valyuta kursi har bir oy mobaynida valyuta savdosi natijasida o'rtacha ko'rsatkichi olingan, masalan, yanvar oy davomida valyuta savdosi natijasida o'rnatilgan valyuta kurslari jamlanib valyuta ayirboshlash kuni soniga bo'linadi.

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari



Yanvar	10826,84	0,17	0,9
Fevral	10845,31	0,17	0,5
Mart	11162,48	3,1	1,5
Aprel	11309,57	1,32	1,5
May	11113,26	-1,74	1,0
Iyun	10944,99	-1,52	0,9
Iyul	10917,60	- 0,25	- 0,1
Avgust	10918,68	0,01	0,5
Sentyabr	10980,28	0,56	1,0
Oktyabr	11099,70	1,08	1,2
Noyabr	11185,26	0,77	1,3
Dekabr	11243,10	0,52	1,3

Manba: O'zb.Resp.MB ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.


Jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, AQSh dollarining so'mga nisbatan o'rtacha kursi 2022 yilning yanvar-aprel oylarida oshib borgan, may-iyul oylarida esa dollarning o'rtacha kursi pasaya boshlagan, bunga sabab mart oyida markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish foiz stavkasini 14 % dan 17 % gacha ko'tarilishi hamda dollarga nisbatan talabning kamayishidir, lekin avgust oyidan boshlab 2022 yilning oxirigacha so'm kursi dollarga nisbatan arzonlashganini kuzatamiz. 2022 yilda dollarning eng yuqori o'sish sur'ati mart oyiga to'g'ri kelmoqda, ya'ni dollarning kursi 3,1 % yoki 317,17 so'mga qimmatlashgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlariga ko'ra, valyuta kursining o'zgarishini bevosita va bilvosita ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Birinchi holatda import tovarlarining yakuniy iste'moli narxlarining oshishi va ikkinchi holatda chet eldan import qilinadigan va ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo narxlarining o'zgarishidir.

2022 yilda mamlakatimizda inflyatsiya darajasi oylar bo'yicha tahlil qilsak, yanvar-may oylarida inflyatsiya darajasining oldingi oylarga nisbatan o'sishini kuzatamiz, lekin may-iyun oylarida inflyatsiya darajasini pasayishini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab markaziy bank tomonidan olib borilgan choralar hamda respublika bozorlariga yangi mahalliy qishloq xo'jalik mahsulotlarining kirib kelishidir. Avgust oyidan dekabr oyigacha mamlakatimizda inflyatsiya darajasi oyma-oy oshib borgan.

Tahlillarda almashuv kursi keskin o'zgarishi bilan bazaviy inflyatsiyaning tezlashgani kuzatilgan bo'lsa, ba'zi davrlarda almashuv kursi o'zgarishi ma'lum kechikishlar bilan ta'sir qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlariga ko'ra, almashuv kursining 1 % qadrsizlanishi uzoq muddatda bazaviy inflyatsiyani 0,28 % tezlashishiga sabab bo'ladi.

Valyuta kursining bazaviy inflyatsiyaga ta'sir qilish bo'yicha tarkib bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulush oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 0,42 %ga yetgan. Nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarning kurs o'zgari-shing inflyatsiyaga ta'siri nisbatan kamroq bo'lib 0,18 hamda 0,16 foizlarni tashkil qilgan.



1 - Rasm. 2022 yil yanvar – sentyabr oylarida O'zbekistonga import qilingan tovarlarning mahsulot turi bo'yicha diagrammasi (foiz hisobida)³

Diagrammadan (1 - Rasm.) ko'rinib turibdiki 2022 yil 1 – 3 choraklarda xomashyo va resurslarning importdagi salmog'i 67,53 % hamda oziq-ovqat mahsulotlarining hissasi 10,42 % tashkil qilgan.

Bazaviy inflyatsiyaga almashuv kursining oziq-ovqat mahsulotlariga ta'siri bir qator sabablarga bog'liq. Birinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari (un, yog', shakar, kartoshka, go'sht mahsulotlari) kundalik ehtiyoj mahsulotlari hisoblanadi. Ikkinchidan, bu mahsulotlarga talab noegiluvchan, ya'ni narxlarning o'zgarishi (bizning misolimizda agar dollar kursi o'sishi kuzatilsa, bu mahsulotlarning bozordagi narxi oshadi) ushbu mahsulotlarning talabini o'zgartirmaydi. Uchinchidan, mamlakatimizda uy xo'jaliklarning iste'mol xarajatlarining tarkibida oziq-ovqat xarajatlarining ulushi 40-50 %ni tashkil etishidir. Albatta bu yuqori ko'rsatkich hisoblanib, inflyatsion jarayonga ijobiy ta'sirga ega.

Bundan tashqari mahalliy bozorlarimizda yuqorida qayd etilgan iste'mol tovarlarining asosiy turlarining import hissasi yuqoriligicha qolmoqda. Import tovarlarning narxi to'gridan-tog'ri valyuta kursiga bog'liq, ya'ni almashuv kursi o'sishi bozorda import tovarlarning narxining ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

MUHOKAMA

Valyuta almashuv kursi mamlakatdagi inflyatsiya ta'sir qilar ekan hukumat ushbu omilning inflyatsiyaga ta'sirini neytrallashtirish yoki kamaytirish choralarini ko'rishi lozim. Birinchidan, samarali monetar va valyuta siyosatini yuritish, ya'ni markaziy bank milliy valutamizning chet el valyutasiga nisbatan almashuv kursini barqarorligini ta'minlash zarur. Bunga valyuta intervensiyasi orqali erishish mumkin, natijada milliy valyutamizning dollarga nisbatan kursini qadrsizlanishini olgan bo'lamiz. Ikkinchidan, valyuta kursini targetlash orqali inflyatsiyani jilovlashga ta'sir etish mumkin. Uchinchidan, chet el valyutasiga nisbatan talabni kamaytirish, buning uchun chet eldan import qilinayotgan xomashyo va resurslar salmog'ini qisqartirish. Mahalliy xomashyo va resurslardan foydalanish import resurslariga bo'lgan

³ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



talabini kamaytiradi. To'rtinchidan, import oziq-ovqat mahsulotlarini hissani kamaytirish. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda imtiyozlarni berish va rag'batlantiruvchi tizimni yaratish. Qishloq xo'jaligiga mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish zamonaviy va ilg'or innovatsion texnologiyalarni kiritish. Import qilinayotga oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibini o'rgansak, aksariyat ushbu mahsulotlar mamlakatimizda ham ishlab chiqarishga imkoniyatlari mavjud. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishturuvchi xo'jaliklarini va tayyorlov firmalarni hamda ushbu mahsulotlarini qayta ishlov beruvchi kichik biznes va xususiy korxonalarini bir-biriga bog'lash. Natijada ishlab chiqarish zanjiri ishga tushib import mahsulotlarini o'rnini bosadigan iste'mol tovarlari ishlab chiqariladi. Beshinchidan, import qilinayotgan tovarlarga boj to'lovlarini bosqichma-bosqich oshirib borish. Boshlanish davrida narxlarning o'sishi kuzatilsa – bu bizning oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmog'i uchun manfaat omili bo'lib xizmat qiladi. Uzoq muddatli istiqbolda esa kelajakda 80-90 % oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatizida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, natijada import mahsulot hajmida oziq-ovqat hissasi kamayishi, chet el valyutaga bo'lgan talabni qisqarishi bilan bir qatorda milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki bozorda turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ushbu mahsulotga bo'lgan aholi talabini qondirish hamda ularni eksport qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

XULOSA

Valyuta kursining o'zgarishi mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga ta'siri qilar ekan hukumat milliy valyuta qiymatining haddan tashqari arzonlashishini oldini olishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki valyuta intervensiyasini davom ettirishi hamda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash maqsadida valyuta kursini targetlash rejimini qo'llash va samarali monetar siyosat yuritish maqsadga muvofiq. Milliy iqtisodiyot doirasida tezkorlikda qishloq xo'jalik sohasiga sanoatni integratsiyasini chuqurlashtirish. O'zbekistonda bu yo'nalishda mavjud salohiyatdan hali to'liq foydalanilmagan, qayta ishlash sohasini rivojlantirish va import mahsulotlar salmog'ini qisqartirish imkoniyatlarimiz yetarli darajada bor. Ushbu yo'nalishda kichik va o'rta biznes tadbirkorlariga soliqlar hamda kreditlar bo'yicha egiluvchan tizimni yaratish orqali import o'rnini bosuvchi tovarlarni yaratish narx barqarorligini ta'minlash hamda chet el valyutasiga bolgan talabini qisqarishiga erishamiz.

References:

1. Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Zamin nashr", 2021. - 770 bet.
2. Z.U.Berdinazarov. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirish. DSc ilmiy darajasi dissertatsiyasi. 145 bet.
3. M.T.Yaxshiyeva. Monetar siyosat nazariyasi: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 98 bet
4. <https://cbu.uz/oz/arkhiv-kursov-valyut/reference/>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/05/08/currency-inflation/>
6. <https://www.xabar.uz/uz/iqtisodiyot/ozbekistonning-tashqi-savdo-aylanmasi-eksport-import-asosiy-sheriklar>
7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>